



HOZIRGI O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA KASB-HUNAR ATAMALARI

M.K.Mamadaminova

BuxDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasb-hunar to'g'risidagi nazariy qarashlar, kasbiy so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. O'zbek tili leksikasida kasb-hunar atamalari, kasbiy shakllanish xususida gap boradi.*

Kalit sozlar: *kasb-kor, kasbiy faoliyat, foyda, daromad, maosh, kasb-hunar fazilati, kasb-hunar atamalari, Bulbulzor, Gulbo'ta-tog'd, Bargi bodom-idishlar, Dog'chil*

Аннотация: *в данной статье рассматриваются теоретические взгляды на профессию и специфические характеристики профессиональных слов. В лексике узбекского языка идут разговоры о профессиональных терминах и профессиональном образовании.*

Ключевые слова: *профессия, профессиональная деятельность, прибыль, доход, заработная плата, профессиональные качества, профессиональные условия, Булбулзор, Гулбота-тогд, Барги бодом-идиш, Пятнистый.*

Annotatsiya: *this article discusses theoretical views on the profession and specific characteristics of professional words. In the vocabulary of the Uzbek language there is talk about professional terms and professional education.*

Key words: *profession, professional activity, profit, income, wages, professional qualities, professional conditions, Bulbulzor, Gulbota-then, Bargi Bodom-Yiddish, Spotted.*

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra "kasb" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, polisemantik so'z *kasaba* fe'lining "o'z mehnati bilan mablag' topmoq" ma'nosini, arab tilida "foyda" "daromad", "maosh" ma'nolarini ifodalaydi.

Bilamizki, har bir kasbda ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan mutaxassislar uchun maqsad, ma'no va yo'nalishni belgilovchi qiymat mavjud. Bundan tashqari, professional qadriyatlar, bir tomondan, ijtimoiy qadriyatlarning konkretizatsiyasi, ya'ni, butun jamiyat rivojlanayotgan paytdagi axloqiy ko'rsatmalar va afzalliklarni aks ettiradi, boshqa tomondan esa, kasbiy qadriyatlar ma'lum bir kasbda mavjud va ma'lum bir kasbiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi rolini o'ynaydi.

Tilning lug'at tarkibi va uni tashkil etuvchi so'zlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Kasb-hunarning turli tarmoqlarida mehnat jarayonida xalqimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan maxsus terminlar umumxalq tilining lug'at tarkibida boy bir qatlamni tashkil qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kasb-hunarga oid leksik birliklarning paydo bo'lishi, shakllanishi, taraqqiy etishiga xalqlarning ko'p ming yillik turmush tarzi, urf-odatlar, mashg'ulotlari asos bo'lgan. Bu birliklar qo'llanilish darajasiga muvofiq faol, nofaol, tarixiy-etimologik shakliga ko'ra arxaik, zamonaviy lug'atga yoki o'zlashma qatlamiga mansubligi kabi xususiyatlari mavjud bo'lib, o'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib kelganligi ma'lumdir.

Kasb-hunar leksikasi – (*professionalizmlar*) muayyan kasb yoki hunar egalari nutqiga xos so'z va tushunchalar majmui. Boshqa tildan so'z olish, shevaga xos so'zlar, umumxalq tiliga xos ma'nosi o'zgartirilgan so'zlar Kasb-hunar leksikasining shakllanishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Bir buyum, narsani turli kasb kishilari tomonidan xilma-xil (mas, „qozon“ – qandolatchilarda „potila“ va b.) nomlanishi ham kasb-hunar leksikasini yuzaga keltirishi mumkin. Kasb-hunarning rivojlangan tarmog'i (masalan, paxtachilik, texnika, tibbiyot va boshqalar) leksikasi boy bo'lib, shu sohalarga oid alohida adabiyotlar ham nashr etilgan. Fan-texnikaga oid terminlarning, umuman, til lug'at tarkibining boyishida va xalqning moddiy madaniyat tarixini o'rganishda ular muhim manba hisoblanadi. Kasb-hunar leksikasi badiiy adabiyotda muayyan personaj xususiyati, tabiatini chuqurroq yoritishda badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi”¹.

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida insonning kasbiy shakllanishi masalalari faylasuf-olimlar diqqat-e'tibori markazidagi masalalardan bo'lib, yoshlarni kasbhunar egallashga da'vat qilish va o'rgatish qadimiy an'analardan hisoblangan. Yoshlarning kasb-hunar egallashi ta'lim va tarbiya berish masalasi bilan bir qatorda muhim hisoblanib, kasb-hunarga o'rgatish jarayoni bilim olish bilan qo'shib olib borilishi, nazariya va amaliyotning birligi ta'minlanishi tavsiya etilgan. Kasb-hunar o'rgatish jarayonida esa imkon qadar qanoatbaxsh so'zlar bilan ilhomlantirish orqali malakalar vujudga keltirishga e'tibor qaratilgan.

Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy. “Masalan: kulolchilikda dog' chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog' och, bandak, bog'ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola gazcho'p (asbob) kabi maxsus so'zlar bor”². Ular shu hunar egalari tilida qo'llanadi va ular uchun tushunarlidir. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko'rsatishda kasb-hunarga doir so'zlardan foydalanadilar.

Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy. O'zbek tili leksikasida kasb-hunar atamalariga quydagi sohalardan misollar keltirish mumkin:

1. Kulolchilik kasb-hunaridan: Angob-qizil kesakdan tay-yorlangan bo'yoq.kulolchilikda keng qo'llaniladi. Sopol idishlar va buyumlar angob surtishdan oldin quritiladi. Notekis joylari maxsus loy (dazmol loy) bilan tekislanadi, so'ng ho'l latta bilan silliqilanadi. Ba'zan angobbir necha qavat surtiladi. Idishlar va buyumlar angobdan keyin naqshlanadi. O'rta Osiyo xalqlari angobni neolit davri (miloddan avvalgi 4 – 3 ming yillik)dan boshlab sopol

¹ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

² S.Ibrohimov.Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi.1056.64-110-betlar.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



idishlarga naqsh berishda va bo'yashda ishlatgan. Kushon podsholigi (miloddan avvalgi 2 – 1 va mil. 1 – 4-asrlar) davridagi sopol idishlarning sirti angob bilan bo'yalgan. Bunday idishlar O'rta Osiyoda qoraxoniylar davri (11 – 12-asrlar)da ham keng tarqalgan. Angobdan qadimgi qabilalar o'liklarni ko'mishda ham foydalangan. Ko'pincha murdaga Angob surtib yoki sepib ko'milgan. Qadimiy odamlar g'orlarning devorlariga va qoyatoshlarga Angob bilan rasmlar chizgan. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Zarautsoydan 1936-yilda G. V. Parfenov topgan qadimgi rasmlar (hayvonlar shakllari) ham angob bilan chizilgan³.

Bulbulzor-sopol tovoqlarga beriladigan naqshning bir turi⁴

Gulbo'ta-tog'dan chiqadigan ko'kimtir oq tusli loy⁵

Bargi bodom-idishlarga solinadigan bodombargi shaklidagi naqsh⁶

Dog'chil - xum yasashda ishlatiladigan asbob Aspak-idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi.

2. Poyafzaldo'zlik kasb-hunaridan:

Bigiz-nina uchli metall qurol; sifatli po'latdan yasaladi; odatda, dastasi yo'goch va plastmassadan qilinadi. Yo'g'oningichkaligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Asosan poyabzaldo'zlar, yamoqchilar ishlatishadi⁷.

Poshna- Oyoq kiyimining tovoniga tag-charmdan balandroq qilib qoqilgan qattiq charm yoki boshqa biror narsa⁸ Dastak- Bu ot tojik tilida dast otiga kichraytirish ma'nosini ifodalaydigan -ak qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; kichik tutqich, kichik bir asos kabi ma'nolarni anglatadi⁹ va h.k.

O'zbek tili lug'at boyligida qo'llanilayotgan kasb-hunarga oid atamalar nutqimizning yanada aniqroq ma'no kasb etishiga xizmat qiladi. Kasblar doirasida qo'llanilayotgan terminologik birliklar buning poydevori bovlilib xizmat qiladi.

Barkamol insonning shakllanishi deganda uning munosib kasb-hunar egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda ovzligini namoyon etishi, ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarda tutiladi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir.

“Kasbiy shakllanish” deganda insonning aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo'lgan layoqati, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi.

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

⁴ S.Ibrohimov. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar.

⁵ S.Ibrohimov. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar.

⁶ S.Ibrohimov. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar.

⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

⁸ O'TIL - O'zbek tilining izohli lug'ati. I - II tomlar. M.: 1981

⁹ O'TIL - O'zbek tilining izohli lug'ati. I - II tomlar. M.: 1981



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ulug' allomalarning barcha davrlarda yaratilgan asarlarida halol mehnat ulug'lanib, bunda kasb-hunar egallashni muqaddas va eng zarur amallardan biri deb ta'kidlangan. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Davoniy va bir qator boshqa allomalar tomonidan yozilgan asarlarda ushbu masala atroflicha talqin qilingan. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida fikr bildirib, ... ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat bo'lishini aytgan¹⁰.

Farobiyning fikriga ko'ra, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilati tug'ma emas. Aks holda insonning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganida edi, podshohlar o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlikka ular faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan va majburiy bo'lib qolar edi [Farobiy, 1993]¹¹.

Hozirgi kunning eng dolzarb, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalaridan biri soha tilining tezaurusini tuzishdir. Zamonaviy tilshunoslikning inson va uning kasbiy faoliyatini ifodalovchi til leksikasiga oid terminologik birliklar tadqiqi va tavsifi kasb-hunarga oid atamalar, so'zlar, terminlar til maydonida qo'llanilish chegarasi, sohalararo integratsiyasi faollashuvi, so'zlashuv leksikasida belgilangan chegarasiga ega bo'layotganligi hamda muayyan til lug'atlarida hajmi kengayib borayotganligi ham quvonarli holdir.

Kasb-hunarga oid so'zlar chegaralangan qatlam so'zlari hisoblanadi. Kasb-hunar leksikadan badiiy asar tilida ma'lum uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. Bunday so'zlarning ma'no xususiyatlari esa lingvokulturologik birlik sifatida yuqoridagi kabi izohlarni talab qiladi. Kasb-hunar leksikasi badiiy adabiyotda muayyan personaj xususiyati, tabiatini chuqurroq yoritishda badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi.

¹⁰ Farobiy, 1975. –B.75-78.

¹¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

